



TA'LIMDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Vasiyeva Dilfuza Dilshod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Matematika va informatika fanlar kafedrası

Axborot texnologiya-bu axborotlarni olish,yig'ish va tarqatishning jarayoni, bu jarayonda inson resurslari texnik resurslarni qo'llashadi. Insonlarning bir qismi axborotga ega, bir qismiga shu axborotni yetkazish zarur.

Kommunikatsiya deganda aloqani tushunamiz, bu radio, televideniye, robotlarni harakatga keltiruvchi radio pultrlar v.h.z.

Texnologiya grekcha so'zlardan tashkil topgan bo'lib, texnos-maxorat, san'at, ustalik, logos-olib boorish, yetkazib berish degani bo'lib, axborot texnologiya-axborotni san'at darajasida yetkazib berish degan ma'noga egadir.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalari, texnik va dasturiy vositalardan foydalanish. Ta'lim jarayonini biz axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz, bu hayotimizga kirib kelgan internet, uning asosiy mazmuniga aylangan mobil texnologiyalar, ekspert tizimlar, sun'iy intellekt tizimlari, robototexnikani rivojlantiruvchi, axborot tizimlari, masofaviy ta'lim tizimlari, gadjetlar, mobil ilovalar va boshqalar. Undan tashqari hammamizga ma'lum bo'lgan Microsoft Offis dasturlari:Word, Excel, Power Point, One Note, Outlook, Access, Publisher va boshqalar. Ularga raqobatdosh bo'lib ta'limga kirib kelgan Google ilovalari: Google Play Market, Google Disk, Google Document, Google Elektron jadval, Google Taqdimot, Google Shaki, Google Maps, Google Cards, Google Books, Google Calendar, Google Hangouts va boshqalar ta'lim jarayonida ham faol qo'llanilib kelmoqda. Googleda disk ochib, Google Document, Google Elektron jadvaldagi va Google taqdimot va Google berilganlar omborida tayyorlangan hujjatlarni, onlayn yaratilgan materiallarni Google Disk yordamida saqlash mumkin. Undan tashqari Google Drive bulutli texnologiyalarda ham ishlash mumkin. Bulutli texnologiyalarining ham yetarlicha platformalari yaratilib, foydalanishga taqdim etilgan. Bulutli texnologiyalar, sizmsiz texnologiyalar, bir tildan ikkinchi tilga o'girish texnologiyalari, Onlayn ta'lim resurslari, o'quv platforma va undagi o'quv kontentlar, kurslar, bloglar, webinarlar, forumlar hammasi axborot texnologiyalari sifatida ta'limda biror masalani hamkorlikda hal etishda qo'llanilishi mumkin.

Ta'lim jarayonida unga mos bolgan dasturiy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.



Bu zamonaviy texnik vositalar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirib tushunish va materialni tezkor va oson yetkazib berishga xarakat qiladi. Dars jarayonida qo'llaniladigan offis dasturlari, grafik muharrirlar va boshqa kompyuter dasturlari ham dasturiy vositalarga kiraadi va dars jarayonida qo'llashga qulay. Masalan dars jarayonida talaba va o'quvchilarning bilimlarinin sinash uchun Easy Quizy, My Test, Quiz Maker, Hot Potatoes dasturlarini qo'llashimiz mumkin. Power Pointda taqdimot yaratib undan dars davomida foydalanishimiz, Word dasturida esa o'quv materillarni tayyorlashimiz, Accessda o'qituvchi rahbarlik qilayotgan guruhi haqida ma'lumotlarni saqlashi, Excelda turli jadvallarni tayyorlashi, dars jadvalini kiritishi mumkin. Onlayn hujjatlarni yuritishda Google imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Google hujjat, Google elektron jadval va Google taqdimot ilovalaridan foydalanib, onlayn elektron resurslarni, o'quv materiallarni tayyorlash mumkin bo'ladi. Dars jarayonida sun'iy intellekt tizimlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq: bularga robototeknikaga uning platalariga va platformalariga hamda dasturlashtirishga asoslangan robotlardan dars jarayonida ma'ruza o'qishda, konferentsiyani o'tkazishda yordamchi sifatida robotlardan talabalarni kutubhonada o'tirib dars tayyorlaganlarini kuzatishda qo'llash mumkin, bunday robotlar ta'lim jarayoniga kirib keldi.

Moodle o'quv platformasidagi saytga registratsiya bo'lishadi, login va parollari bilan kirib foydalanishlari mumkin bo'ladi, yani autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlaridan foydalanish onlayn tizimida ishlaganda doimo qo'l keladi. Har bir o'qituvchi o'zining kompetentligidan kelib chiqqan holda dasturiy vositalardan, kompyuter programmalaridan, qolaversa turli vositalardan qo'llashni bilishi zarur. Pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalari kompetentligi deganda biz dars jarayoniga o'qituvchining mahorati va texnik vositalaridan, kompyuter dasturlaridan foydalanishni bilishiga qarab ularni qo'llay bilishini va buni fanga va mavzularga aloqadorligini tushunamiz.

Bu kashfiyotlar ulkan axborotlarni ishlab chiqish va saqlashga hamda ularni kommunikasiya tarmoqlari orqali tez tarqatish imkonini beradi. Kompyuterlarni bir-biriga ulash va ularni bir-biri bilan aloqa qilishga sozlash yangi kuchli texnologik tizimni umumiy protokoldan foydalanuvchi tarmoq axborot sistemalarini yaratishga imkon beradi. Ular odamlarni, ularning uylarini va idoralarni birlashtiradi hamda juda qisqa vaqt ichida ulkan topshiriqlar sonini ishlab chiqadi va bajaradi. Bu axborotlardan foydalanish xususiyatini va kommunikasiya tuzilishini tubdan o'zgartiradi. Shu bilan birga kompyuter tarmoqlari Yer sharining barcha nuqtalari bilan aloqa qilish imkonini beradi.



Ta'lim tizimi uchun bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida kommunikasiya uchun yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining insoniyat hayotidagi muammo va yechimlari:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va "Butun jahon tarmog'i" barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot-tarbiyaviy faoliyat sifatida. Ta'lim muammosini globalizasiyalashtirish – seminarlar o'tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizm mohiyatini ochib berishgacha – elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog'lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan – bu ta'lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo'lmagan, ilg'or axborot texnologiyasi ta'lim tizimida fanning ahamiyatini o'zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o'zi rivojlanishi bilan emas, balki ta'lim va o'qitish tizimi bilan ham bog'liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi. Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni ta'minlovchi, shu jumladan, mobil telefonlar soni internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Ta'lim sifatini, ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini oshirish vazifasi hisoblanadi. Kadrlar



tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish soʻzsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Taʼlim tizimini ragʻbatlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib boʻlmaydi. Taʼlim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzluksiz jarayondan iborat boʻlishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun taʼlim tizimi dinamik, mukammal boʻlishi kerak.

Gumanitar taʼlim tizimi – bu shaxsiy fikrlashini qayta anglab yetish, yangi oʻquv dasturlarini ishlab chiqish, doimiy fikr almashish doimiy jarayonidir. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlari davrida yangi texnologiyalarni yaratish va tarqatish xususiyatlari oʻzgarmoqda hamda bu quyidagi yoʻnalishlarda sodir boʻlmoqda: birinchidan, yuksak raqobatchilik hukm surishi bilan ajralib turadigan zamonaviy global bozorda koʻnikmalar har qachongidan ham katta ahamiyatga ega. Texnologiyalarni uzatish va tarqatish juda murakkab jarayon. Ikkinchidan, texnologiyalar qimmatligini tan olinishini aks ettiruvchi yangi global normalarni ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega boʻlmoqda.

Deyarli barcha mamlakatlar tomonidan maqullangan yangi qoidalari intellektual xususiylikni himoya qilish rejimlarini barcha yerda kuchaytirmoqda. Uchinchidan, butun dunyoda ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik loyihalashtirish sektorida xususiy sektor yetakchi rol oʻynaydi. Bu sektorda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish uchun zarur moliyaviy mablagʻlar, bilimlar va kadrlar katta qismi jamlangan. Toʻrtinchidan, eng yuksak malakali texnik mutaxassislarni ish bilan taʼminlovchi global mehnat bozori shakllanadi. Beshinchidan, yangi kompaniyalar, ilmiy-tadqiqotchilik laboratoriyalari va moliyalashtiruvchilar hamda korporasiyalar yangi texnologiyalar ishlab chiqarish global markazlariga birlashmoqdalar. Buning natijasida olimlar, moliyalashtiruvchilar va tadbirkorlarning oʻzaro zarur aloqalarini taʼminlovchi yangi dinamik muhit yuzaga kelmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.S.Gʻulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Darslik. Toshkent, "Sharq", 2000 y.
2. S.Tursunov, I.Nazarov, A.Hasanov. Taʼlimda axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019 yil 2-tom
3. S.Tursunov, I.Nazarov, A.Hasanov. Taʼlimda axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2019 yil 1-tom.
4. Yuldoshev I.A. Taʼlimda zamonaviy texnik vosita va texnologiyalar. Monografiya/- T.: «Fan va texnologiya», 2015. -172 b.



5. T.Rixsibyev, X.Rizsiyoyeva, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi.Darslik. T.: "Tafakkur qanoti", 2018 y.

6. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web dizayn.Darslk.T.: "Cho'lpon", 2013 y.